

QORAQALPOQ FOLKLORI VA AN'ANAVIY TURMUSHIDA GILAMCHILIK SEMANTIKASI HAMDA UNING IJTIMOIIY-MADANIY AHAMIYATI

Naurizbaeva Nurjamal

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

nawrizbaevanurjamal@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21466603>

Qoraqalpoq xalqining an'anaviy madaniyati utilitar-maishiy va ma'naviy-ramziy unsurlarning o'zaro uzviy bog'liqligi (sinkretizmi) bilan ajralib turadi. Etnik o'zlikni anglash, estetik dunyoqarash va axloqiy me'yorlarning eng yorqin ifodachilaridan biri sifatida gilamchilik san'ati alohida o'rin tutadi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzida gilam va to'qima buyumlar shunchaki ro'zg'or ashyosi emas, balki oilaning ijtimoiy maqomini, o'zaro aloqa va axloq tizimini namoyon etuvchi o'ziga xos ramziy belgi (kommunikativ kod) vazifasini bajargan. Ushbu tadqiqotda qoraqalpoq folklori, maqol-matni, marosim she'riyati va etnografik materiallari asosida gilam semantikasi hamda unga oid atamalarning ijtimoiy-madaniy mohiyati tahlil qilinadi.

Qoraqalpoq paremiologiyasida gilamchilikka oid atamalarning etnografik tahlili.

Gilamchilik san'ati va uning texnologiyasi xalq og'zaki ijodida keng aks etgan. Xususan, xalq orasida ko'p ishlatiladigan quyidagi maqol e'tiborga loyiqdir:

«Qoyli bay, qurli bay» (Qo'yli boy — qurli boy)[1].

Mazkur maqolning zamirida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy mazmun yotadi. Gilam va to'qima buyumlar asosan qo'y junidan tayyorlangani bois, chorvadorning haqiqiy boyligi shunchaki qo'ylarining soni bilan emas, balki ushbu xomashyoni qayta ishlab, yuksak mahorat talab etadigan «qur» (o'tov yog'ochlarini suyak, mustahkamlab turadigan uzorli enosli lentalar) to'qiy olish qobiliyati va ularning xonadonda mavjudligi bilan o'lchangan.

Xalq dunyoqarashida texnologik jarayonlarning ijtimoiy munosabatlarga ko'chirilishini quyidagi maqolda ham yaqqol ko'rish mumkin:

«Barista emes, keliste. Arqawda emes, eriste» [2].

Ushbu maqoldagi «arqau» (arqoq — gilamning ko'ndalang ipi) va «eris» (erish — gilamning bo'yiga tortiladigan asos ipi) terminlari gilam to'qish jarayonining eng muhim poydevorini tashkil etadi. Ma'lumki, faqatgina arqoq yoki faqatgina erish ipining o'zi bilan gilam to'qib bo'lmaydi. Xalqimiz ushbu ip tolalarining perpendikulyar tarzda o'zaro jipslashishini majoziy ma'noda jamiyatga ko'chirib, insonlar birlashsa, ahil bo'lsa va xuddi arqoq bilan erishdek bir-birini qo'llab-quvvatlab tursagina, hayotda yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi mumkinligini donolik bilan tushuntirib bergan.

An'anaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va qo'shnichilik aloqalarini tartibga soluvchi me'yorlar orasida quyidagi maqol alohida ahamiyat kasb etadi:

«Gilem satsañ qoñsıñ sat, bir shetinde óziñ otırasañ» (Gilam sotsang qo'shningga sot, bir chetida o'zing o'tirasani)[3].

Ushbu maqol inson hayotidagi eng yaqin ko'makchi va qiyinchilik paytida birinchi bo'lib yordamga keladigan shaxs qarindosh emas, balki qo'shni ekanligi haqidagi hayotiy tajribani ifodalaydi. Maqolda aynan gilamning tilga olinishi quyidagi etnografik omillar bilan bog'liq:

1. Buyumning yuksak qadrlanishi. Gilam qadimdan qimmatbaho, katta mehnat va vaqt evaziga yaratiladigan, oilaning moddiy farovonligi va obro'-e'tiborini aks ettiruvchi muqaddas buyum hisoblangan.

2. Ishonch va kafolat. Bunday qimmatbaho buyumni begonaga sotish keyinchalik sifat yoki narx borasida turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Qo'shni esa gilamning to'qilish jarayoni va unga sarflangan mehnatni yaxshi bilgani bois, savdoda o'zaro ishonch ustuvor bo'lgan.

3. Bo'linmas ijtimoiy makon. «Bir chetida o'zing o'tirasani» iborasi ramziy ma'noda bo'lib, qo'shniga sotilgan buyum baribir mahalliy ijtimoiy makon doirasida qolishini va kun kelib undan sotuvchining o'zi ham mehmondorchilikda foydalanishi mumkinligini anglatadi.

Marosim folklori va ertaklarda gilam ramzi hamda mifologik semantikasi.

Qoraqalpoq og'zaki ijodida qiz uzatish marosimlarida aytiladigan «Sinsiw» (yor-yor va yig'i qo'shiqlari) alohida o'rin tutadi. Ushbu qo'shiqlarda gilamga oid tasvirlar ham uchraydi:

«Shahardan olgan uch gilam, uchovi ham tus gilam» [4].

Ushbu matnda uchraydigan «tus gilam» birikmasi ilmiy jihatdan alohida e'tiborga loyiq. Gilamchilik klassifikatsiyasida bunday nomdagi gilam turi deyarli uchramaydi. Biroq muzey fondlari va etnografik materiallarni o'rganish jarayonida tuksiz to'qiladigan va rang-barang bo'laklardan tashkil topgan «alasha» mahsulotlari ba'zi hollarda mahalliy shevada «tús» so'zi bilan nomlanishi aniqlangan. Shu bilan birga, o'z xohishiga qarshi, majburan uzatilayotgan qiz ichki iztirob va noroziligini ifodalovchi «Sinsiw» janrida ushbu «tus gilam»ni ramziy ma'noda «rangsiz», «naqshsiz», «fayzsiz» deb atash orqali o'z chorasizligi va kelajakdagi mahzun hayotiga ishora qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ertaklarda esa gilam ko'pincha sehrli va mifologik kuch sifatida talqin qilinadi. Masalan, «Murodiga etgan oshiqlar» ertagida dunyoning istalgan chetiga lahzada eltuvchi «uchar gilam» obrazi yaratilgan[5]. «Gulbulbul» ertagida esa qizlarning o'tov ichida yanga boshchiligida yigiruv charxi (sharx) atrofida ip yigirib o'tirganligi bayon etiladi[6]. Bu esa qoraqalpoq xonadonlarida qizlarni bolalikdan boshlab tizimli ravishda gilam to'qish va ip yigirish san'atiga o'rgatib borilganining yaqqol dalilidir.

Gilamning uyning «yuragi» ekanligi va xonadonga fayz baxsh etishi didaktik she'riyat — «Termalar» turkumida ham o'z isbotini topgan:

«Uyning yaxshi bo'lmog'i. Alashaning o'zidan» [7].

Bundan tashqari, o'tovning (qora uyning) tashqi bezaklari va gilamlari ham oilaning ulug'vorligini ko'rsatuvchi omil hisoblangan:

«Beldewe bedew kórinse, erdiñ úyi desedi» [8].

Bu erda tilga olingan «beldew» — qora uyning tashqi tomonidan utilitar va estetik maqsadlarda tortiladigan maxsus etnografik to'qima kamar bo'lib, u uyning ko'rki va ramziy himoyachisi hisoblangan.

Tarixiy afsona va rivoyatlarda ham gilam hokimiyat va ulug'vorlik ramzi sifatida keladi. Xususan, «Ayollar xonligi haqida» afsonasida malika Zanayxonning oltin gilam ustida taxt qurib o'tirishi tasvirlangan bo'lib, bu gilamning ijtimoiy ierarxiyadagi yuksak ramziy maqomini ko'rsatadi[9].

Xalq og'zaki ijodi va etnografik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gilam qoraqalpoq xalqining nafaqat moddiy madaniyati unsuri, balki uning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy qadriyatlari va axloqiy qarashlarining ramziy ifodasidir. Folklordagi gilam obrazi orqali o'zaro yordam, birdamlik, qo'shnichilik haqqiga rioya qilish va mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar tizimli ravishda avloddan-avlodga uzatib kelingan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Қарақалпақ аўызеки халық дөретпелери. – Нөкис: Каракалпакстан, 1990. – Б. 89.
2. Турмыслық талаптар ҳәм үрп-әдетлер ҳаққындағы нақыл-мақаллар. Қарақалпак фольклоры. Т. 90. – Нөкис: Каракалпакстан, 2015. – Б. 98.
3. Кәсип-өнер, ўақыт ҳәм мәўсимлер ҳаққында нақыл-мақаллар. Қарақалпак фольклоры. Т. 90. – Нөкис: Каракалпакстан, 2015. – Б. 180.
4. Қарақалпақ аўызеки халық дөретпелери. – Нөкис: Каракалпакстан, 1990. – Б. 51.
5. Сыйқырлы ертеклер. Қарақалпақ фольклоры. 68-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 2014. – Б. 195.
6. Батырлық ертеклер. Қарақалпақ фольклоры. 69-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 2014. – Б. 244.
7. Термелер. Қарақалпак фольклоры. 92-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 2015. – Б. 203.
8. Термелер. Қарақалпак фольклоры. 92-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 2015. – Б. 203.
9. Әпсаналар. Қарақалпак фольклоры. 77-т. – Нөкис: Каракалпакстан, 2014. – Б. 66.